



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EISSN 2181-2187

2 (88) 2026

Сопредседатели редакционной коллегии:

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:
М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
У.О. АБИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Д.Т. АШУРОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЪЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
Э.Б. ХАККУЛОВ
Г.С. ХОДЖИЕВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ NEW DAY IN MEDICINE

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

2 (88)

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com
E: ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

2026 февраль

Received: 20.01.2026, Accepted: 06.02.2026, Published: 10.02.2026

UDK 616.5-002.2-056.3-08

SURUNKALI ALLERGIK DERMATITLARDA INTEGRATSIYALANGAN TERAPIYA: KLINIK NATIJALAR VA UZOQ MUDDATLI REMISSIYA TAHLILI

Karimova Feruza Rakhmatboevna <https://orcid.org/0009-0008-5021-0029>

E-mail: feruza_karimova@bsmi.uz

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro sh. A. Navoiy
kochasi 1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Rezyume

Mazkur tadqiqot surunkali allergik dermatitlarni davolashda standart tibbiy protokollar va xalq tabobati usullarining klinik samaradorligini qiyosiy baholashga bag'ishlandi. Tadqiqotda 298 nafar bemor ishtirok etdi, ulardan 138 nafari erkaklar va 160 nafari ayollarni tashkil etdi. Klinik ko'rsatkichlar (qichishuv intensivligi, eritema maydoni, teri quruqligi), remissiya davomiyligi va retsidivlar chastotasi tahlil qilindi. Standart terapiya fonida simptomlar sezilarli darajada kamaydi ($p<0,01$; $p<0,001$), biroq remissiya o'rtacha 3,7–3,9 oy davom etdi va har to'rt bemordan birida qo'shimcha terapiyaga ehtiyoj kuzatildi. Xalq tabobati vositalari (aloe, g'oz yog'i asosidagi surtmalar) simptomlarni yengillashtirish va teri bar'yerini tiklashga yordam berdi, ammo klinik regressiya sur'ati sekinroq bo'ldi. Integratsiyalangan yondashuv qo'llanilganda remissiya muddatining uzayishi va retsidivlar kamayishi qayd etildi. Olingan natijalar kompleks va individualizatsiyalangan terapiya strategiyasining ustuvorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: surunkali allergik dermatit, standart terapiya, xalq tabobati, aloe, g'oz yog'i, remissiya, retsidiv, teri bar'yer funksiyasi.

ИНТЕГРАТИВНАЯ ТЕРАПИЯ ПРИ ХРОНИЧЕСКИХ АЛЛЕРГИЧЕСКИХ ДЕРМАТИТАХ: АНАЛИЗ КЛИНИЧЕСКИХ РЕЗУЛЬТАТОВ И ДЛИТЕЛЬНОЙ РЕМИССИИ

Каримова Феруза Рахматбоевна <https://orcid.org/0009-0008-5021-0029>

E-mail: feruza_karimova@bsmi.uz

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, Узбекистан,
г. Бухара, ул. А. Навои. 1 Тел: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Резюме

Настоящее исследование посвящено сравнительной оценке клинической эффективности стандартных медицинских протоколов и методов народной медицины при лечении хронических аллергических дерматитов. В исследовании приняли участие 298 пациентов, из них 138 мужчин и 160 женщин. Проанализированы клинические показатели (интенсивность зуда, площадь эритемы, сухость кожи), продолжительность ремиссии и частота рецидивов. На фоне стандартной терапии отмечено достоверное снижение симптомов ($p<0,01$; $p<0,001$), однако средняя продолжительность ремиссии составила 3,7–3,9 месяца, и у каждого четвертого пациента потребовалась дополнительная терапия. Средства народной медицины (алоэ, мази на основе гусиного жира) способствовали уменьшению симптомов и восстановлению кожного барьера, однако скорость клинического улучшения была ниже. При интегративном подходе отмечено удлинение ремиссии и снижение частоты рецидивов. Полученные данные подтверждают целесообразность комплексной индивидуализированной терапии.

Ключевые слова: хронический аллергический дерматит, стандартная терапия, народная медицина, алоэ, гусиный жир, ремиссия, рецидив, кожный барьер.

INTEGRATIVE THERAPY IN CHRONIC ALLERGIC DERMATITIS: ANALYSIS OF CLINICAL OUTCOMES AND LONG-TERM REMISSION

Feruza Rakhmatboevna Karimova <https://orcid.org/0009-0008-5021-0029>

E-mail: feruza_karimova@bsmi.uz

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina, Uzbekistan, Bukhara, st. A. Navoi.

1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Resume

This study was aimed at the comparative evaluation of the clinical effectiveness of standard medical protocols and traditional medicine approaches in the treatment of chronic allergic dermatitis. A total of 298 patients were included, comprising 138 males and 160 females. Clinical parameters (itch intensity, erythema area, skin dryness), remission duration, and relapse frequency were analyzed. Standard therapy resulted in a significant reduction of symptoms ($p<0.01$; $p<0.001$); however, the mean remission duration was 3.7–3.9 months, and one in four patients required additional therapy. Traditional remedies (aloe extract and goose fat-based topical formulations) contributed to symptom relief and restoration of the skin barrier, although the rate of clinical improvement was slower. The integrative approach demonstrated prolonged remission and reduced relapse rates. These findings support the implementation of a comprehensive and individualized therapeutic strategy for chronic allergic dermatitis.

Keywords: chronic allergic dermatitis, standard therapy, traditional medicine, aloe, goose fat, remission, relapse, skin barrier function.

Dolzarbligi

Surunkali allergik dermatitlar (SAD) zamonaviy dermatologiyaning dolzarb muammalaridan biri bo'lib, ularning uchrash chastotasi so'nggi yillarda barqaror oshib bormoqda. Kasallikning surunkali kechishi, tez-tez qaytalanuvchi (retsdiv) shakllari, teri bar'yer funksiyasining buzilishi hamda bemorlarning hayot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mazkur patologiyani chuqur o'rganishni talab etadi. Allergik dermatitlar nafaqat klinik simptomatika bilan, balki immunologik, metabolik va neyroendokrin omillar bilan ham chambarchas bog'liq bo'lib, ko'p komponentli patogenezga ega [1,4,6,8,9,10].

Bugungi kunda SADni davolashda xalqaro va milliy klinik tavsiyalarga asoslangan standart tibbiy protokollar qo'llaniladi. Ushbu protokollar tarkibiga topikal glyukokortikosteroidlar, kalsinevrin ingibitorlari, antigistamin preparatlar, emollientlar va simptomatik terapiya kiradi. Ularning klinik samaradorligi qisqa muddatli natijalarda yuqori bo'lib, qichishish intensivligi, eritema maydoni va terining quruqligi kabi asosiy simptomlar tez pasayadi. Biroq ko'plab kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, standart terapiya fonida klinik remissiya qisqa muddatli bo'lib, bemorlarning muayyan qismida retsdivlar saqlanib qoladi. Bu esa kasallikning immunopatologik asoslari to'liq bartaraf etilmayotganini ko'rsatadi [2,3,6,8].

So'nggi yillarda integrativ yondashuvlar – ya'ni standart tibbiy protokollarni xalq tabobati vositalari bilan uyg'unlashtirish masalasi dolzarb bo'lib bormoqda. Xalq tabobatida keng qo'llaniladigan tabiiy komponentlar, jumladan aloe ekstrakti, g'oz yog'i, dorivor o'simlik asosidagi fitopreparatlar antiinflamator, antioksidant va regenerativ ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, g'oz yog'i asosidagi surtmalarning teri lipid qatlamini tiklash, transepidermal suv yo'qotilishini kamaytirish va yallig'lanish mediatorlarini pasaytirishdagi potensial roli ilmiy qiziqish uyg'otmoqda. Aloe tarkibidagi biologik faol moddalar esa epitelizatsiyani tezlashtirish, mikroyallig'lanishni kamaytirish va mahalliy immun javobni modulyatsiya qilish xususiyatiga ega [5,7,9].

Shu bilan birga, xalq tabobati vositalarining klinik samaradorligi ko'pincha randomizatsiyalangan tadqiqotlar bilan yetarlicha asoslanmagan bo'lib, ularning standart protokollarga nisbatan ustun yoki qo'shimcha samarasi aniq mezonlar asosida baholanishi zarur. Ayniqsa, uzoq muddatli remissiya davomiyligi, retsdivlar chastotasi va qo'shimcha terapiyaga ehtiyoj ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlil qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

SADning yosh va jinsga xos xususiyatlari ham muhim klinik ahamiyat kasb etadi. Epidemiologik kuzatuvlar bolalik davrida erkaklarda kasallik yuqoriroq uchrashi, o'smirlik va fertil yoshda esa ayollarda surunkalashish tendensiyasi kuchliroq ekanligini ko'rsatadi. Bu gormonal omillar, immun javob differensialligi hamda psixoemotsional yuklamalar bilan izohlanadi. Shu bois davolash strategiyasini ishlab chiqishda yosh va jinsiy farqlarni hisobga olish individual terapiya samaradorligini oshirish imkonini beradi.


Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, unda surunkali allergik dermatitlarni davolashda standart tibbiy protokollar va xalq tabobati usullarining klinik samaradorligi qiyosiy tahlil qilinadi, shuningdek integratsiyalangan terapiyaning istiqbollari ilmiy asosda baholanadi. Tadqiqot natijalari uzoq muddatli remissiyaga erishish, retsidivlar sonini kamaytirish hamda bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi: Surunkali allergik dermatitlar bilan kasallangan bemorlarda standart tibbiy protokollar va xalq tabobati usullarining klinik samaradorligini qiyosiy baholash, ularning qisqa va uzoq muddatli natijalarini (simptomlar regressiyasi, remissiya davomiyligi, retsidivlar chastotasi va qo'shimcha terapiyaga ehtiyoj) tahlil qilish hamda integratsiyalangan davolash yondashuvining istiqbollarini ilmiy asoslash.

Material va tadqiqot usullari

Tadqiqot prospektiv kuzatuv va qiyosiy klinik tahlil asosida olib borildi. Ish surunkali allergik dermatit (SAD) tashxisi qo'yilgan bemorlarda standart tibbiy protokollar hamda xalq tabobati usullarining klinik samaradorligini baholashga qaratildi. Tadqiqot davomida qisqa muddatli klinik natijalar, remissiya davomiyligi, retsidivlar chastotasi va qo'shimcha terapiyaga ehtiyoj ko'rsatkichlari o'rganildi.

Tadqiqotda jami 298 nafar bemor ishtirok etdi, ulardan 138 nafari (46,3%) erkaklar va 160 nafari (53,7%) ayollarni tashkil etdi. Erkaklarning o'rtacha yoshi $27,7 \pm 1,27$ yoshni, ayollarda esa $30,6 \pm 1,13$ yoshni tashkil etdi (rasm). Tadqiqotga 18 yoshdan 74 yoshgacha bo'lgan, klinik va dermatologik mezonlar asosida tasdiqlangan surunkali allergik dermatit tashxisi qo'yilgan bemorlar jalb qilindi. Kasallikning kamida 6 oy davom etgan surunkali kechishi tadqiqotga kiritish mezonini sifatida qabul qilindi. O'tkir infeksiyon teri kasalliklari, og'ir somatik yoki autoimmun patologiyalari mavjud bo'lgan, tizimli immunosuppressiv terapiya qabul qilayotgan, shuningdek homilador va laktatsiya davridagi ayollar tadqiqotdan chiqarildi.



1 Rasm. Bemorlarni yosh kategoriyalari bo'yicha taqsimoti (n=298)

Bemorlar qo'llanilgan davolash turiga ko'ra guruhlariga ajratildi. Standart tibbiy protokol asosida davolangan bemorlar guruhi 169 nafarni tashkil etdi (erkaklar – 75 nafar, ayollar – 94 nafar). Ushbu guruhda davolash milliy va xalqaro klinik tavsiyalarga muvofiq amalga oshirildi hamda topikal glyukokortikosteroidlar, kalsinevrin ingibitorlari, antigistamin preparatlar, emollientlar va simptomatik terapiyani o'z ichiga oldi. Parhez tavsiyalari va allergenlarni cheklash choralariga ham alohida e'tibor qaratildi.

Xalq tabobati vositalari qo'llangan bemorlarda esa aloe ekstrakti, g'oz yog'i asosidagi modifikatsiyalangan mahalliy surtmalar hamda dorivor o'simlik ekstraktlari ishlatildi. Ushbu vositalarning asosiy maqsadi yallig'lanish jarayonini kamaytirish, terining lipid qatlamini tiklash, transepidermal suv

yo'qotilishini pasaytirish va regeneratsiya jarayonlarini faollashtirishdan iborat bo'ldi. Ayrim bemorlarda standart va xalq tabobati vositalari kombinatsiyalangan holda qo'llanilib, integratsiyalangan terapiyaning uzoq muddatli natijalari alohida tahlil qilindi.

Davolash samaradorligi klinik mezonlar asosida baholandi. Qichishuv intensivligi 10 ballik vizual analog shkala asosida aniqlanib, eritema maydoni sm^2 da o'lchandi. Teri quruqligi ball tizimi asosida baholandi. Shuningdek simptomlar regressiyasi boshlangan kun, eritemaning to'liq yo'qolish muddati, qichishuvning yo'qolish vaqti, umumiy davolash davomiyligi, remissiya davomiyligi (oylarda), retsidivlar chastotasi hamda qo'shimcha terapiyaga ehtiyoj ko'rsatkichlari qayd etildi.

Olingan ma'lumotlar variatsion statistika usullari yordamida qayta ishlandi. Miqdoriy ko'rsatkichlar o'rtacha qiymat va standart xatolik ko'rinishida ($M \pm m$) ifodalandi. Guruhlararo farqlar Student t-mezone yordamida baholandi. $p < 0,05$ statistik jihatdan ishonchli, $p < 0,01$ yuqori ishonchlilik, $p < 0,001$ esa juda yuqori ishonchlilik darajasi sifatida qabul qilindi. Statistik tahlil natijalari asosida standart va xalq tabobati usullarining qisqa va uzoq muddatli klinik samaradorligi qiyosiy baholandi.

Natijalar va tahlillar

Tadqiqot natijalari surunkali allergik dermatit bilan kasallangan bemorlarning yosh-jins xususiyatlari, davolash usullariga bog'liq klinik ko'rsatkichlar dinamikasi hamda remissiya davomiyligi bo'yicha muhim farqlar mavjudligini ko'rsatdi.

Jami 298 nafar bemor orasida ayollar ulushi (53,7%) erkaklarga (46,3%) nisbatan yuqoriroq bo'ldi. Erkaklarda o'rtacha yosh $27,7 \pm 1,27$ yoshni, ayollarda esa $30,6 \pm 1,13$ yoshni tashkil etib, ayollarda ko'rsatkich taxminan 10,5% yuqori ekanligi qayd etildi. Yosh guruhlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki, 18 yoshgacha bo'lgan toifada erkaklar ustunlik qilgan (44,2%), ayollarda esa bu ko'rsatkich 31,9% ni tashkil etdi. Aksincha, 18–44 yosh oralig'ida ayollarda kasallik tarqalishi yuqoriroq (41,3%) bo'lib, erkaklarda 30,4% ni tashkil etdi. 45–59 yosh toifasida ko'rsatkichlar nisbatan yaqin bo'lsa-da, ayollarda ustunlik tendensiyasi saqlanib qoldi. 60–74 yosh oralig'ida esa kasallik ikki jinsda deyarli teng uchradi.

Mazkur ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, erkaklarda bolalik davrida kasallikning uchrash chastotasi yuqori bo'lsa, ayollarda o'smirlik va fertil yoshda surunkalashish va uzoq davom etish ehtimoli kuchliroq. Bu holat gormonal va immunologik omillar bilan izohlanishi mumkin.

Standart tibbiy protokol asosida davolangan bemorlarda klinik ko'rsatkichlarning sezilarli ijobiy dinamikasi qayd etildi. Qichishuv intensivligi davolashgacha erkaklarda $7,9 \pm 1,03$ ball, ayollarda $7,6 \pm 0,98$ ball bo'lgan bo'lsa, davolashdan so'ng mos ravishda $4,1 \pm 0,62$ va $3,8 \pm 0,57$ ballgacha pasaydi ($p < 0,01$). Bu ko'rsatkich qichishuv intensivligi deyarli ikki barobar kamayganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Standart tibbiy protokollar asosida davolangan bemorlarda klinik ko'rsatkichlarning dinamikasi, ($M \pm m$, ball)

№	Ko'rsatkichlar	Davolangandan so'ng			

Eritema maydoni erkaklarda $56,4 \pm 7,34 \text{ sm}^2$ dan $22,1 \pm 3,10 \text{ sm}^2$ gacha, ayollarda $54,2 \pm 7,0 \text{ sm}^2$ dan $20,7 \pm 2,9 \text{ sm}^2$ gacha kamaydi ($p < 0,001$). Eritema regressiyasi yuqori statistik ishonchlilik darajasida tasdiqlandi. Teri quruqligi ko'rsatkichi ham sezilarli yaxshilandi: erkaklarda $6,9 \pm 0,93$ dan $3,3 \pm 0,46$ gacha, ayollarda $6,6 \pm 0,88$ dan $3,0 \pm 0,43$ gacha pasaydi ($p < 0,01$).

Remissiyaga erishish muddatlari tahlili shuni ko'rsatdiki, simptomlar yengillasha boshlagan vaqt erkaklarda $4,2 \pm 0,63$ kunni, ayollarda $3,9 \pm 0,58$ kunni tashkil etdi. Eritemaning to'liq yo'qolishi erkaklarda o'rtacha $17,7 \pm 2,48$ kun, ayollarda $16,9 \pm 2,33$ kun ichida kuzatildi. Qichishuvning to'liq yo'qolishi mos ravishda $12,6 \pm 1,76$ va $11,9 \pm 1,66$ kunni tashkil etdi. Umumiy davolash davomiyligi erkaklarda $19,9 \pm 2,78$ kun, ayollarda $19,1 \pm 2,61$ kun bo'ldi.

Remissiya davomiyligi erkaklarda $3,7 \pm 0,55$ oy, ayollarda $3,9 \pm 0,57$ oy bo'lib, ayollarda biroz uzoqroq saqlanishi qayd etildi. Shunga qaramay, uzoq muddatli kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, har to'rt bemordan biri standart terapiyadan so'ng qo'shimcha davolash choralariga ehtiyoj sezgan. Bu esa kasallikning surunkali va qaytalanuvchi xususiyatini tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval

Standart tibbiy protokollar bilan davolanganda remissiyaga erishish muddati va davolash davomiyligi, (M±m)

№	Ko'rsatkichlar		
	Eritema to'liq yo'qolgan vaqt (kun)		
	Qichishuv yo'qolgan vaqt (kun)		

Xalq tabobati vositalari qo'llangan bemorlarda simptomlarning regressiyasi kuzatilgan bo'lsa-da, klinik ko'rsatkichlarning pasayish sur'ati standart protokollarga nisbatan sekinroq bo'ldi. Biroq integratsiyalangan terapiya qo'llangan holatlarda remissiya davomiyligi deyarli ikki barobar uzoqroq saqlangani va retsidivlar chastotasi kamaygani qayd etildi. Bu holat teri bar'yerining tiklanishi va yallig'lanish mediatorlarining bosqichma-bosqich pasayishi bilan izohlanadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, standart terapiya tezkor klinik samara beradi, ammo uzoq muddatli barqaror natijaga erishishda qo'shimcha regenerativ va bar'yer tiklovchi vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Integratsiyalangan yondashuv esa simptomatik regressiyani tezlashtirish bilan birga remissiya muddatini uzaytirish va qo'shimcha terapiyaga ehtiyojni kamaytirish imkonini beradi.

Muhokama: mazkur tadqiqot natijalari surunkali allergik dermatitlarni davolashda standart tibbiy protokollar yuqori qisqa muddatli klinik samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Qichishuv intensivligi, eritema maydoni va teri quruqligi ko'rsatkichlarining sezilarli pasayishi ($p<0,01$; $p<0,001$) xalqaro dermatologik tadqiqotlarda qayd etilgan natijalar bilan mos keladi. Ilgari o'tkazilgan ko'plab klinik kuzatuvlarda topikal glyukokortikosteroidlar va kalsinevrin ingibitorlari yallig'lanish mediatorlarini tez bostirishi, IL-4, IL-13 kabi sitokinlar ekspressiyasini kamaytirishi va simptomatik regressiyani tezlashtirishi ko'rsatib o'tilgan.

Biroq adabiyotlarda ham, bizning tadqiqotimizda ham standart terapiya fonida uzoq muddatli remissiya barqaror emasligi va retsidivlar saqlanib qolishi qayd etildi. Bu holat allergik dermatitlarning immunopatogenetik mexanizmlari to'liq bartaraf etilmasligi bilan izohlanadi. T-helper 2 yo'nalishidagi immun javob ustunligi, teri bar'yerining strukturaviy buzilishi (filaggrin yetishmovchiligi), transepidermal suv yo'qotilishining oshishi kasallikning qaytalanuvchi tabiatini belgilaydi. Ayrim tadqiqotlarda remissiya o'rtacha 3–4 oy davom etishi ko'rsatilgan bo'lib, bu bizning natijalarimiz (3,7–3,9 oy) bilan deyarli mos keladi.

Yosh va jins omillariga doir natijalar ham ilmiy manbalardagi kuzatuvlar bilan uyg'un. Ko'pgina epidemiologik izlanishlarda bolalik davrida o'g'il bolalarda uchrash chastotasi yuqoriroq ekani, o'smirlik va fertil yoshda esa ayollarda kasallikning surunkalashish tendensiyasi kuchayishi ta'kidlangan. Bu gormonal o'zgarishlar, immun javobning jinsiy dimorfizmi va psixosotsial omillar bilan bog'liq deb qaraladi. Bizning tadqiqotimizda ham 18 yoshgacha erkaklarda yuqori ko'rsatkich, 18–44 yosh oralig'ida esa ayollarda ustunlik kuzatildi.

Xalq tabobati vositalari bilan bog'liq natijalar alohida e'tiborga loyiq. Aloe ekstrakti va g'oz yog'i asosidagi surtmalarning qo'llanilishi simptomlarning sekinroq, ammo barqarorroq regressiyasini ta'minlagan. Adabiyotlarda aloe tarkibidagi polisaxaridlar va antioksidant komponentlarning yallig'lanishga qarshi va regenerativ ta'siri qayd etilgan. Ular fibroblast proliferatsiyasini rag'batlantiradi, kollagen sintezini faollashtiradi va epitelizatsiyani tezlashtiradi. G'oz yog'i esa yuqori darajada to'yintirilmagan yog' kislotalarini o'z ichiga olgan bo'lib, teri lipid qatlamini tiklash, bar'yer funksiyasini mustahkamlash va transepidermal suv yo'qotilishini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda integrativ dermatologiya konsepsiyasi rivojlanib, standart terapiya va tabiiy regenerativ vositalarni uyg'unlashtirish istiqbolli yo'nalish sifatida qaralmoqda. Ayrim klinik tadqiqotlarda kombinatsiyalangan yondashuv retsidivlar chastotasini kamaytirishi va remissiya muddatini uzaytirishi ko'rsatilgan. Bizning kuzatuvlarimizda ham integratsiyalangan terapiya qo'llanilganda remissiya deyarli ikki barobar uzoqroq saqlangani va qo'shimcha terapiyaga ehtiyoj kamaygani qayd etildi. Bu natijalar patogenetik jihatdan izohlanadi: yallig'lanish mediatorlarini tez bostirish (standart terapiya) va teri bar'yerini tiklash (xalq tabobati vositalari) kombinatsiyasi kompleks ta'sir mexanizmini shakllantiradi.

Shu bilan birga, xalq tabobati vositalarining klinik samaradorligi ko'pincha randomizatsiyalangan, ko'p markazli tadqiqotlar bilan yetarlicha asoslanmaganligi ularning keng klinik amaliyotga joriy etilishida

ehtiyotkorlikni talab etadi. Bizning tadqiqot natijalari ushbu yo'nalishda ilmiy asos yaratadi, biroq kelgusida katta hajmdagi, nazorat guruhli izlanishlar o'tkazish zarur.

Umuman olganda, olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, surunkali allergik dermatitlarda faqat simptomatik yondashuv yetarli emas. Kasallikning surunkali va qaytalanuvchi tabiatini hisobga olgan holda, immunomodulyatsiya va teri bar'yerini tiklashga qaratilgan integratsiyalangan strategiya uzoq muddatli klinik samaradorlikni ta'minlashi mumkin.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijalari surunkali allergik dermatitlarni davolashda standart tibbiy protokollar yuqori qisqa muddatli klinik samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Qichishuv intensivligi, eritema maydoni va teri quruqligi ko'rsatkichlarining ishonchli pasayishi ($p<0,01$; $p<0,001$) simptomatik regressiyaning tez va barqaror boshlanishini ko'rsatdi. Standart terapiya fonida simptomlar o'rtacha 4-kundan boshlab yengillashgani, eritemaning to'liq yo'qolishi 16–18 kun ichida kuzatilgani aniqlanib, davolashning klinik samarasi statistik jihatdan tasdiqlandi.

Shu bilan birga, remissiya davomiyligi o'rtacha 3,7–3,9 oyni tashkil etgani va har to'rt bemordan birida qo'shimcha terapiyaga ehtiyoj yuzaga kelgani kasallikning surunkali va qaytalanuvchi xususiyatini ko'rsatadi. Bu holat standart terapiya simptomlarni tez bartaraf etsa-da, immunopatogenetik mexanizmlarni to'liq barqarorlashtirmasligini anglatadi.

Xalq tabobati vositalari (aloe ekstrakti, g'oz yog'i asosidagi mahalliy surtmalar va fitokomponentlar) qo'llanilganda simptomlarning regressiyasi nisbatan sekinroq kechgan bo'lsa-da, teri bar'yer funksiyasining tiklanishi va yallig'lanish jarayonining bosqichma-bosqich kamayishi kuzatildi. Integratsiyalangan terapiya qo'llanilgan holatlarda remissiya muddatining uzayishi va retsidivlar chastotasining kamayishi qayd etildi. Bu yondashuv yallig'lanishga qarshi tezkor ta'sir va regenerativ-bar'yer tiklovchi mexanizmlarning uyg'unlashuvi bilan izohlanadi.

Yosh va jins omillarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, erkaklarda bolalik davrida kasallik yuqoriroq uchrasa, ayollarda o'smirlik va fertil yoshda surunkalashish tendensiyasi kuchliroq namoyon bo'ladi. Bu klinik amaliyotda individual yondashuv zarurligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, surunkali allergik dermatitlarni davolashda integratsiyalangan — ya'ni standart tibbiy protokollarni xalq tabobati vositalari bilan uyg'unlashtirishga asoslangan yondashuv uzoq muddatli klinik samaradorlikni oshirish, remissiya muddatini uzaytirish va qo'shimcha terapiyaga ehtiyojni kamaytirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida kompleks, patogenetik asoslangan va individualizatsiyalangan davolash strategiyasini ishlab chiqishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bieber T. Atopic dermatitis: an expanding therapeutic pipeline for a complex disease. *Nat Rev Drug Discov.* 2022;21(1):21–40.
2. Cork MJ, Danby SG, Ogg GS. Atopic dermatitis epidemiology and unmet need in the United Kingdom. *J Dermatolog Treat.* 2020;31(8):801–809.
3. Eichenfield LF, Tom WL, Chamlin SL, et al. Guidelines of care for the management of atopic dermatitis. *J Am Acad Dermatol.* 2023;88(2):407–450.
4. Kim J, Kim BE, Leung DYM. Pathophysiology of atopic dermatitis: clinical implications. *Allergy Asthma Immunol Res.* 2020;12(1):84–99.
5. Langan SM, Irvine AD, Weidinger S. Atopic dermatitis. *Lancet.* 2020;396(10247):345–360.
6. Lee SY, Jeong SH, Kim DW. Effects of aloe vera gel in patients with chronic inflammatory skin diseases: A systematic review. *Complement Ther Med.* 2021;57:102636.
7. Purnamawati S, Indrastuti N, Danarti R, Saefudin T. The role of moisturizers in addressing various kinds of dermatitis: A review. *Clin Med Res.* 2020;18(2):75–87.
8. Silverberg JI. Public health burden and epidemiology of atopic dermatitis. *Dermatol Clin.* 2021;39(3):259–268.
9. Weidinger S, Novak N. Atopic dermatitis. *Lancet.* 2019;387(10023):1109–1122.
10. Wollenberg A, Christen-Zäch S, Taieb A, et al. ETFAD/EADV Eczema task force 2020 position paper on diagnosis and treatment of atopic dermatitis in adults and children. *J Eur Acad Dermatol Venereol.* 2020;34(12):2717–2744.

Qabul qilingan sana 20.01.2026